

BO‘SH O‘ZLASHTIRIRUVCHI O‘QUVCHILAR BILAN DARSDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARNI SAMARALI TASHKIL ETISH

Urishova Shaxodatxon Qodirovna

Qo‘qon shahar 20-maktab o‘zbek tili o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan darsdan tashqari mashg‘ulotlarni samarali tashkil etishning usullari va ularni o‘qitishda turli noan’anaviy metodlaridan foydalanish, ularni darsga qiziquvchanligini orttirish haqida so‘z boradi

Kalit so‘zlar: bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar, didaktik o‘yinlar, Kim birinchi?”, „Kim chaqqon?”, o‘yini, Tayanch so‘zlar yordamida matn tuzish,

Bugungi kunda deyarli rivojlangan mamlakatlar ta’lim jarayonida o‘quvchi darsning markaziy figurasi ekanligi tan olinmoqda. Qolgan barcha harakatlar uning atrofida kechadi. Haqiqatdan, ham yangi ijtimoiy va iqtisodiy talablar asosida ta’lim maqsadiga erishish uchun o‘qitishning zamonaviy usullariga murojaat qilinadi. Boshlang‘ich ta’lim fanlarini o‘qitishda turli noan’anaviy metodlaridan foydalilanadi.

Pedagog bo‘lish-mashaqqatli mehnat. Lekin jamiyat uchun eng kerakli, murakkab hamda mas’uliyatli kasblaridan biridir. Ustoz bolaning ta’lim va tarbiya olishida, unga ijobiy xislatlarini shakllantirishida muhim rol o‘ynaydi.

Faoliyatimda o‘qitishning zamonaviy usularini qo‘llagan holda yosh avlodga ta’lim- tarbiya berib, o‘quvchilar qalbida Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarimizga sadoqat hissini sigdirishni o‘z oldimga maqsad qilib qo‘ydim.

O‘quvchilarning darsga qiziqishlarini oshirish va dars davomida o‘zlarini erkin tutshga, fikrini mustaqil va ravon ifodalay olishga ko‘mak berish maqsadida bir necha sinov- o‘yinlarini dars jarayoniga kiritdim.

Ayniqsa, bo‘sh o‘zlashtirgan o‘quvchilar bilan ishlashda darsdan tashqari mashg‘ulotlarini samarali taskil etishda ham didaktik o‘yinlarning ahamiyati muhim

hisoblanadi. Musobaqa tarzida tashkil etilgan,, Kim birinchi?”, „Kim chaqqon?” kabi o‘yinlar ularga o‘ziga ishonch, boshqalardan kam bo‘lmaslik hislarini shakllantiradi.

Yana bir muhim jihat tanlangan o‘yin o‘quvchining yoshiga ham mos kelishi lozim.Har qanday yoshda oila o‘quvchi uchun muhim maskan sanaladi.O‘yinlar orqali jamoa bolaning oilasi ekanligini va ushbu oilaning ajralmas qismi, faol a’zosilagini singdirish lozim.

Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirib,, mashg‘ulot samaradorligini ta’minlaydi. Quyida 3- sinfda,,Sifat- so‘z turkumi” mashg‘ulotini o‘rganishda qo‘llaniladigan ayrim interfaol usullarni havola etamiz.

Maqolning davomini toping va chiziq chizish orqali birlashtiring:

1	Ish ishtaha ochar	bir kes
2	Beshikdan to qabrgacha	o‘quvchining o‘rtog‘i
3	Ona yurting	ilm izla
4	Yetti o‘lchab	dangasa ishdan qochar
5	Kitob bilim bulog‘i	oltin beshiging

Mustaqil va ijodiy fikr yurituvchi shaxsni tarbiyalashda didaktik o‘yinlar orqali matnni o‘qish va tushinish darajalari sifati oshishiga ko‘makalashadi.

O‘qituvchi o‘z iste’dodi, ko‘z nuri, yurak qo‘ri va butun borlig‘ini o‘quvchilarha bag‘ishlasagina ko‘zlagan maqsadiga erishadi. O‘ylaymanki mening pedagogik ish tajribam, barcha boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarning ijodkorligiga yana bir bor yo‘l ochib beradi.

Tayanch so‘zlar yordamida matn tuzish.

O‘quvchi tayanch so‘zlar yordamida mavzuga oid tasavvurni hosil qiladi. Tasavvurini bayon etish uchun matn tuzadi. Bu mashg‘ulot ham ijod mahsulini yuzaga kelishini ta’minlaydi.

Namuna: 7-sinf ona tili darsligida(2017) uyga vazifa uchun berilgan 9-mashq(6-bet) topshirig‘i: «**Assalom, maktab!**» **mavzusida matn tuzing. Unda ishlatilgan tovushlarni izohlang.**

«Assalom, maktab!» mavzusida matn yozish uchun tayanch so‘zlar:

Maktab, erta tong, ota-onas, birinchi o‘qituvchi, ta’tildan so‘ng, yangi o‘quv yili, o‘quv qurollari, sinfdoshlar, quvonch, taassurotlar, o‘quvchilar, sog‘inch, dars, o‘qituvchim, kitoblar, ilm, ishtiyoy, quvonch, tadbirlar, kutubxona, ziyo.

Matn: Yozgi ta’tilimiz oxirlab boravergan sayin qalbimda maktabimga bo‘lgan sog‘inchni hayajon ila tuyaman. Oilam bilan yangi o‘quv yilga tayyorgarlik ko‘rar ekanman, yana bir sinfga ulg‘ayganimni, sinfdoshlar davrasini, ustozlar darsini ko‘z oldimga gavdalantiraman.

Mana, shu kun ham keldi. Erta tongdan maktab hovlisi ko‘zlari quvonchdan porlagan katta-yu kichik o‘quvchilar va ustozlar bilan gavjum. Ayniqsa, ota-onasi qo‘lidan ushlab, birinchi o‘qituvchisi bilan tanishayotgan bo‘lajak o‘quvchilarni ko‘rib bir zum ziyo maskaniga birinchi marta onam bilan kelganimni eslab, xuddi ulardek qalbim hayajonga to‘ldi: “Assalom, maktabim!”

Ta’tildan so‘ng ko‘rib turganimgami, go‘yo sinfdoshlarimning bo‘ylari cho‘zilgan, gap-so‘zlaridan ulg‘aygandek. Hamma bir-biriga navbat bermay, ta’til taassurotlarini aytish bilan band.....(Shu tariqa tayanch so‘zlar yordamida matn tuziladi va mashqning ikkinchi sharti bajariladi)

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, bu metod va usullar orqali o‘qituvchi ham o‘z ustida ishlaydi hamda bolalarning yaxshi, qiziqarli bilim olishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o‘rta ta’limning ona tili fanidan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Toshkent-2017

2. 7-sinf. Adabiyot darsligi Qozoqboy Yo‘ldoshev, Begali Qosimov, Valijon Qodirov, Jalolbek Yo‘ldoshbekov. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent – 2017

3. 6-sinf. Ona tili darsligi N. Mahmudov, A. Nurmonov A. Sobirov, D. Nabiyeva. «Tasvir» nashriyot uyi Toshkent — 2017

4. 6-sinf. Adabiyot darsligi. I qism (S. Ahmedov, R. Qo‘chqorov, Sh. Rizayev, I qism. Toshkent «Ma’naviyat» 2017

5. R. Ishmuhamedov, M. Yuldashev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2016

6. Safayev N.S., Mirashirova N.A. “Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti“ TDPU, 2013 y, B.124-137.